



## INFORMATION-PSYCHOLOGICAL INFLUENCE TOOLS AND SOCIAL SECURITY

*Ulugbek Muradullaevich Shukurullaev*

*Independent Researcher*

*National University of Uzbekistan*

[nanni-juli@mail.ru](mailto:nanni-juli@mail.ru)

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** information-psychological influence, information security, manipulation, propaganda, public consciousness, information environment, ideological threat, media literacy.

**Abstract:** This article provides a socio-philosophical analysis of the nature of information-psychological influence tools, their modern forms, and their impact on societal security. Particular attention is given to the mechanisms of manipulation, propaganda, and selective information flows shaping public consciousness. The study also substantiates key approaches to ensuring information and psychological security in the modern digital environment.

**Received:** 23.05.26

**Accepted:** 24.05.26

**Published:** 25.05.26

## AXBOROT-PSIXOLOGIK TA'SIR VOSITALARI VA JAMIYAT XAVFSIZLIGI

*Ulug'bek Muradullaevich Shukurullaev*

*O'zbekiston Milliy Universiteti mustaqil izlanuvchisi,*

[nanni-juli@mail.ru](mailto:nanni-juli@mail.ru)

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** axborot-psixologik ta'sir, axborot xavfsizligi, manipulyatsiya, propaganda, ijtimoiy ong, axborot makoni, mafkuraviy tahdid, media savodxonlik.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada axborot-psixologik ta'sir vositalarining mohiyati, ularning zamonaviy shakllari hamda jamiyat xavfsizligiga ko'rsatayotgan ta'siri ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, manipulyatsiya, propaganda va axborot oqimining selektivligi kabi omillar orqali jamoatchilik ongiga ta'sir etish mexanizmlari ochib beriladi. Shuningdek, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari va zamonaviy yondashuvlari asoslab beriladi.

## СРЕДСТВА ИНФОРМАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ И БЕЗОПАСНОСТЬ ОБЩЕСТВА

*Улужбек Мурадуллаевич Шукуруллаев*

*Независимый исследователь*

*Национального университета Узбекистана*

*E-mail: [nanni-juli@mail.ru](mailto:nanni-juli@mail.ru)*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** информационно-психологическое воздействие, информационная безопасность, манипуляция, пропаганда, общественное сознание, информационное пространство, идеологическая угроза, медиаграмотность.

**Аннотация:** В статье проводится социально-философский анализ сущности средств информационно-психологического воздействия, их современных форм и влияния на безопасность общества. Особое внимание уделяется механизмам манипуляции, пропаганды и селективности информационных потоков, формирующих общественное сознание. Также обосновываются приоритетные направления обеспечения информационно-психологической безопасности в современных условиях.

---

**Kirish.** Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashgan sharoitda axborot insoniyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biriga aylanib bormoqda. XXI asr bejizga “axborot asri” deb atalmaydi, chunki zamonaviy jamiyatda axborot nafaqat bilim manbai, balki ijtimoiy boshqaruv, siyosiy ta’sir va mafkuraviy kurashning asosiy vositasiga aylangan. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy kommunikatsiya vositalari va raqamli platformalar orqali tarqalayotgan axborot oqimi inson ongiga bevosita ta’sir ko’rsatish imkoniyatlarini keskin kengaytirmoqda.

Hozirgi davrning o’ziga xos jihati shundaki, axborot uzatish tezligi misli ko’rilmagan darajada oshib, global axborot makoni shakllandi va unda sodir bo’layotgan jarayonlar bir vaqtning o’zida butun dunyo auditoriyasiga yetib bormoqda. Natijada, axborot oddiy kommunikatsiya vositasi bo’lishdan chiqib, jamiyat ongini shakllantirish, jamoatchilik fikrini boshqarish va hatto siyosiy jarayonlarga ta’sir o’tkazishning muhim instrumentiga aylandi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy davrda “axborot urushi”, “axborot bosimi” va “psixologik ta’sir” kabi tushunchalar ilmiy muomalada keng qo’llanilmoqda [1].

Ayniqsa, bugungi kunda axborot-psixologik ta’sir vositalari orqali inson ongiga yashirin tarzda ta’sir ko’rsatish, uning qarashlari, qadriyatlarini va xulq-atvorini o’zgartirish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Bu jarayonda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning roli tobora ortib, ular orqali tarqalayotgan axborotlar jamiyatning ma’naviy muhitiga bevosita ta’sir

ko'rsatmoqda. Natijada, insonlarning real voqelikni qabul qilish jarayoni murakkablashib, manipulyativ axborotlar ta'sirida noto'g'ri tasavvurlar shakllanishi ehtimoli ortmoqda.

Zamonaviy axborot muhitining yana bir muhim xususiyati shundaki, unda axborot nafaqat tez, balki selektiv va maqsadli tarzda yetkazilmoqda. Bu esa ijtimoiy ongni boshqarishning yangi shakllarini yuzaga keltirib, jamiyatda axborot-psixologik tahdidlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu jihatdan, axborot-psixologik ta'sir vositalarini chuqur o'rganish va ularning jamiyat xavfsizligiga ta'sirini tahlil qilish bugungi kunning dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

**Muhokama va natijalar.** Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda axborot-psixologik ta'sir vositalari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga chuqur kirib borib, inson ongini shakllantirish va boshqarishning muhim instrumentiga aylangan. Axborot oqimining keskin ortishi, kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va global axborot makonining shakllanishi natijasida insonning voqelikni qabul qilish jarayoni tubdan o'zgardi. Endilikda shaxs ijtimoiy jarayonlarni bevosita tajriba orqali emas, balki vositalashtirilgan axborot – ommaviy kommunikatsiya tizimlari orqali qabul qilmoqda. Bu esa uning ongida real voqelikdan farq qiluvchi, sun'iy shakllangan "axborotli voqelik"ni yuzaga keltiradi [2].

Axborot-psixologik ta'sir vositalari mohiyatan inson ongiga maqsadli ravishda ta'sir ko'rsatish orqali uning qarashlari, qadriyatlari va xulq-atvorini o'zgartirishga qaratilgan mexanizmlar majmui hisoblanadi. Ushbu jarayon ochiq targ'ibot shaklida emas, balki ko'proq yashirin, tizimli va uzluksiz ta'sir orqali amalga oshiriladi. Bunda axborot tanlab beriladi, ma'lum kontekstda talqin qilinadi va takroriy tarzda uzatilishi orqali inson ongida barqaror tasavvurlar shakllantiriladi. Natijada shaxs o'z qarorlarini mustaqil qabul qilayotgandek tuyulsada, amalda u oldindan shakllantirilgan axborot muhitining ta'siri ostida harakat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda axborot-psixologik xavfsizlik jamiyatni ana shunday destruktiv axborot ta'sirlaridan himoya qilish holati sifatida talqin qilinadi va u milliy xavfsizlikning muhim komponenti sifatida e'tirof etiladi [3]. Zamonaviy tadqiqotlar ham bu fikrni tasdiqlaydi: masalan, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali berilayotgan takroriy va emotsional kontent insonlarning siyosiy qarashlari va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatishi, ayrim hollarda esa jamoatchilik fikrini keskin o'zgartirib yuborishi mumkinligi aniqlangan [4].

Shuningdek, axborotning haddan tashqari ko'pligi va uning selektiv tarzda yetkazilishi insonning tanqidiy fikrlash qobiliyatini susaytirib, uni tayyor stereotiplar asosida fikrlashga yo'naltiradi. Bu esa axborot-psixologik ta'sir vositalarining samaradorligini oshirib, ularni zamonaviy jamiyatda eng kuchli mafkuraviy instrumentlardan biriga aylantirmoqda.

Axborotning ta'sir kuchi uning tezligi va qamrov darajasi bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi sharoitda axborot soniyalar ichida global auditoriyaga yetib boradi va bu jarayon ijtimoiy ongga tezkor va kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan kontentlar qisqa, vizual va emotsional xarakterga ega bo'lib, inson tomonidan tez qabul qilinadi, ammo chuqur tahlil qilinmaydi. Natijada axborotni tanqidiy baholash darajasi pasayadi va manipulyativ ta'sir kuchayadi [1].

Axborot-psixologik ta'sir vositalarining asosiy mexanizmlaridan biri – bu manipulyatsiyadir. Manipulyatsiya jarayonida axborot tanlab beriladi, kontekstdan uziladi yoki ma'lum maqsadga yo'naltirilgan holda qayta talqin qilinadi. Bu esa foydalanuvchining ongida noto'g'ri tasavvurlarni shakllantiradi va real voqelikni buzib qabul qilishiga olib keladi. Ayniqsa, axborotning emotsional jihatdan boyitilgan, soddalashtirilgan va takroriy shaklda berilishi uning ta'sir kuchini yanada oshiradi.

R.B. Kuziev ta'kidlaganidek, bunday ta'sir vositalari inson ruhiyatiga bilvosita kirib borib, uning xatti-harakatlarini boshqarish imkonini yaratadi [3]. Bu fikr manipulyatsiyaning yashirin va chuqur psixologik xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, rus tadqiqotchilari G.V. Grachev va I.I. Melnik ham axborot-psixologik ta'sirni "inson ongini yashirin boshqarish va ijtimoiy xulq-atvorni maqsadli yo'naltirishga qaratilgan tizimli jarayon" sifatida baholaydi [5].

Zamonaviy sharoitda manipulyatsiya texnologik jihatdan yanada murakkablashib, raqamli platformalar orqali keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Xususan, algoritmik tizimlar yordamida foydalanuvchining psixologik profili aniqlanib, unga mos kontent uzatiladi. Bu esa manipulyativ ta'sirning individual darajada chuqurlashuviga olib keladi. Natijada, inson o'z qarorlarini mustaqil qabul qilayotgandek tuyulsa-da, aslida u oldindan shakllantirilgan axborot oqimining mahsuli sifatida harakat qiladi.

Bu holat axborotning oddiy informatsion vosita emas, balki kuchli psixologik va mafkuraviy ta'sir instrumenti ekanini yaqqol namoyon etadi. Aynan manipulyatsiya mexanizmlarining yashirinligi va uzluksizligi ularni zamonaviy axborot-psixologik tahdidlarning eng murakkab va xavfli shakliga aylantirmoqda [6].

Zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt va algoritmik tizimlar ushbu jarayonni yanada murakkablashtirdi. Bugungi kunda axborot foydalanuvchining qiziqishlari va xatti-harakatlari asosida filtrlanadi va unga moslashtirilgan holda taqdim etiladi. Natijada "axborot pufagi" (filter bubble) yuzaga keladi, bunda inson faqat o'z qarashlariga mos axborotni qabul qiladi va muqobil fikrlar bilan to'qnashmaydi. Bu esa ijtimoiy guruhlar o'rtasida qarashlar tafovutini keskinlashtirib, ijtimoiy polarizatsiyani kuchaytiradi [6].

Axborot-psixologik ta'sirning jamiyat xavfsizligiga ta'siri ayniqsa murakkab va ko'p qirrali hisoblanadi. Avvalo, bu jarayon jamiyatning ma'naviy barqarorligiga putur yetkazadi, chunki noto'g'ri yoki manipulyativ axborotlar asosida shakllangan qarashlar jamiyatda sun'iy stereotiplar, noto'g'ri qadriyatlar tizimi hamda buzilgan ijtimoiy me'yorlarning vujudga kelishiga olib keladi. Ayniqsa, emotsional jihatdan kuchli va tez tarqaluvchi axborotlar insonlarning ongiga chuqur singib, ularning voqelikni tanqidiy baholash qobiliyatini pasaytiradi.

Bundan tashqari, axborot orqali jamoatchilik fikrini sun'iy shakllantirish siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ayrim holatlarda ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan noto'g'ri yoki biryoqlama axborotlar jamoatchilik kayfiyatining keskin o'zgarishiga, noroziliklarning kuchayishiga va ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Bu esa axborotning faqat informatsion emas, balki ijtimoiy boshqaruv vositasi sifatida ham namoyon bo'layotganini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborot muhitidagi destruktiv o'zgarishlar ijtimoiy keskinlik, ishonchsizlik va ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi. Shu bilan birga, bunday ta'sirlar jamiyat a'zolari o'rtasida o'zaro ishonchning susayishiga, ijtimoiy institutlarga nisbatan shubhaning ortishiga va ijtimoiy birdamlikning zaiflashishiga sabab bo'ladi. Natijada, jamiyatda "axborot fragmentatsiyasi" yuzaga kelib, turli guruhlar o'rtasida qarashlar tafovuti keskinlashadi.

Bizning fikrimizcha, aynan mana shu jarayon axborot-psixologik ta'sirning eng xavfli oqibatlaridan biri hisoblanadi. Chunki u nafaqat alohida shaxs ongiga, balki butun jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, yoshlar qatlamining axborot-psixologik ta'sirga nisbatan yuqori darajada ta'sirchanligi ushbu muammoning dolzarbligini yanada oshiradi. Chunki yoshlar ijtimoiy tarmoqlarning eng faol foydalanuvchilari bo'lib, ular orqali tarqalayotgan axborotlarni tez qabul qiladi. Natijada ularning qadriyatlar tizimi va ijtimoiy pozitsiyasi tashqi ta'sir ostida shakllanishi mumkin. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda jamiyatning ma'naviy va mafkuraviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, axborot-psixologik ta'sir vositalarining eng xavfli jihati ularning yashirin va tizimli xarakter kasb etganidadir. Chunki inson ko'pincha o'ziga ko'rsatilayotgan ta'sirni anglamaydi va uni tabiiy axborot oqimi sifatida qabul qiladi. Shu sababli, zamonaviy sharoitda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash faqat texnologik choralar bilan cheklanmasligi, balki insonning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish va jamiyatda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish orqali amalga oshirilishi zarur.

**Xulosa qilib aytganda**, zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot-psixologik ta'sir vositalari inson va jamiyat hayotining muhim omiliga aylanib, uning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanish yo'nalishlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, uning tezkorligi va selektiv xarakter kasb etishi natijasida inson ongiga yashirin va tizimli ta'sir o'tkazish imkoniyatlari kengayib, bu jarayon jamiyat xavfsizligining dolzarb muammolaridan biriga aylangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, axborot-psixologik ta'sir vositalari orqali shakllanayotgan manipulyativ axborot muhiti jamiyatda noto'g'ri qarashlar, sun'iy stereotiplar va buzilgan qadriyatlar tizimini yuzaga keltirib, ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, jamoatchilik fikrining sun'iy shakllantirilishi va ijtimoiy ongning deformatsiyasi ijtimoiy ziddiyatlar, ishonchsizlik muhitining kuchayishi hamda ijtimoiy polarizatsiyaning chuqurlashuviga olib kelmoqda. Bu esa axborot-psixologik tahdidlarning nafaqat individual, balki tizimli va global xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, mazkur tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun, avvalo, jamiyatda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, axborot makonida tarqalayotgan destruktiv kontentlarni aniqlash va ularni cheklashga qaratilgan institutsional mexanizmlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash faqat texnologik choralar bilan emas, balki inson omiliga – uning ongli, tanqidiy va mas'uliyatli yondashuviga tayanilgan holda amalga oshirilgandagina samarali natija beradi. Aynan mana shu yondashuv zamonaviy jamiyatda barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim sharti hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bozorova Z.E. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. – Toshkent, 2010.
2. Sobirov N.S. Axborotlashgan jamiyatda milliy xavfsizlik mexanizmlari. – 2024.
3. Кузиев Р.Б. Проблемы информационно-психологической безопасности. – 2021.
4. Sunstein C.R. #Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media. – 2021.
5. Грачев Г.В., Мельник И.И. Информационно-психологическая безопасность личности и общества. – Москва: Аспект Пресс, 2008. – 384 с.
6. Почепцов Г.Г. Информационные войны. – Москва: Рефл-бук, Киев: Ваклер, 2000. – 576 с.